



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*Izoh: 2024-yil yanvar-sentabr hamda 2024-yil 1-oktabr holatiga ma’lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo‘yicha yakuniy ma’lumotlar keltirilgan.*



PRESS-RELIZ



2024-yil yanvar-sentabr

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2024-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar

## Doimiy aholi soni

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

37 355,4  
ming kishi



693 897

nafar

Tug‘ilganlar

25,0 ‰

Tug‘ilish koeffitsiyenti



131 674

nafar

Vafot etganlar

4,7 ‰

Vafot etish koeffitsiyenti



562 223

nafar

Tabiiy o‘shish

20,3 ‰

Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti



1 736

kishi

Xorijdan  
ko‘chib kelganlar



8 374

kishi

Xorijga  
ko‘chib ketganlar

## Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi



+755,6 ming kishi

2023-yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga oshgan.


## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2024-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar

**Demografiya statistikasi** – ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRALISHLAR




### MING AHOLIGA NISBATAN:

Nikoh tuzish koeffitsiyenti, promille



**6,5 ‰**




Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, promille




**1,2 ‰**

### Qayd etilgan tug‘ilganlar va nikohlar soni

(yillik ma’lumotlar)




## O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi



2024-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **37 355,4** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 809,5** ming kishini, ayollar soni **18 545,9** ming kishini, shahar aholisi soni **19 047,1** ming kishini, qishloq aholisi soni **18 308,3** ming kishini tashkil etdi.


## Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo‘yicha taqsimlanishi

1-oktabr holatiga, ming kishi




## Aholining o‘rtacha yoshi

2024-yil 1-yanvar holatiga



### Erkaklar

**Aholining o‘rtacha yoshi bu** – aholi yosh tarkibining taxminiy umumiy tavsifi. U umumiy aholi tarkibidagi barcha odamlar yoshlarining o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. O‘rtacha yosh bu – aholi soni jihatidan teng bo‘lgan ikkita guruhga bo‘lingan yosh bo‘lib, ularning birinchi yarmi yosh, ikkinchi yarmi esa katta.




### Ayollar

## Aholining mehnatga layoqatli yosh bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga





**Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni** – Mehnat kodeksiga muvofiq, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifasiga ajratiladi);

*IZOH: Mehnatga layoqatli aholini hisoblashda BMT tomonidan taqdim qilingan metodikadan foydalaniladi.*



## Aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi




**Aholining yosh tarkibi bu** – aholining yoshga qarab taqsimlanishi. Uni qurish uchun ko‘pincha bir yillik va besh yillik oraliqlar qo‘llaniladi. Yosh guruhi bu – umumiy yoshi va boshqa xususiyatlari bilan birlashtirilgan insonlar guruhi. Demografik guruhlarga go‘daklar (5 yoshgacha), bolalar (5-13 yosh), yoshlar (14-30 yosh), o‘rta yoshdagilar (31-59 yosh), keksalar (60 yosh va undan kattalar) kiradi.

**Yosh** – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.


## Aholining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **2 262,7** ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, **657,0** ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 5 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **2 108,1** ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni **736,0** ming kishini tashkil etgan.

## Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi, yosh




**Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi** – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi.

*Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*

### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

2024-yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi




O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **83,2** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,7** kishiga ortgan (2023-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **81,5** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6 909,6** kishi, Andijon viloyatida **801,3** kishi, Farg‘ona viloyatida **610,0** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,8** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **12,1** kishini tashkil etgan.

### Aholi zichligi dinamikasi

1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi






## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni


2024-yil 1-oktabr holatiga

### Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi




Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 275,3** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **4 123,6** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 618,3** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **926,7** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 090,0** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 530,3** ming kishini tashkil etgan.

### Aholi ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **11,4 %**, Farg‘ona viloyatida **11,0 %**, Qashqadaryo viloyatida **9,7 %**, Andijon viloyatida **9,2 %** va Namangan viloyatida **8,3 %** ni tashkil etgan.

### Aholi ulushi nisbatan kam bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan




Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,9 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **5,4 %** ni tashkil etgan.

## II BO‘LIM. TUG‘ILISH

### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2024-yil yanvar-sentabr, ming kishi



#### Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-sentabr

#### O‘g‘il bolalar



#### Qiz bolalar



#### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-sentabr

#### Shahar



#### Qishloq



2024-yil yanvar-sentabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **693,9** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **360,0** ming kishini, qiz bolalar soni **333,9** ming kishi, tirik tug‘ilganlar soni shahar joylarida **343,4** ming kishini, qishloq joylarida **350,5** ming kishini tashkil etdi.


#### Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Oy	O‘g‘il bolalar (kishi)	Ulushi (%)	Qiz bolalar (kishi)
<b>YANVAR</b>	37 299	51,9 %	34 631
<b>FEVRAL</b>	33 988	51,9 %	31 538
<b>MART</b>	35 357	51,8 %	32 900
<b>APREL</b>	35 751	52,0 %	33 060
<b>MAY</b>	38 026	52,2 %	34 865
<b>IYUN</b>	37 696	52,0 %	34 745
<b>IYUL</b>	47 270	51,7 %	44 170
<b>AVGUST</b>	46 225	51,9 %	42 855
<b>SENTABR</b>	48 422	51,8 %	45 099

*Tirik tug‘ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;*

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda, quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar 97,7 % ni, 2 nafar tug‘ilganlar 2,2 % ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar 0,1 % ni tashkil etdi.

*Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;*

### Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr



2024-yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha 10,8 % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, 82,4 % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda 6,8 % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha 39,5 % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, 59,3 % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda 1,2 % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar  
2024-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va ko‘effitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha tug‘ilish ko‘effitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida 29,0 promille, Qashqadaryo viloyatida 27,8 promille, Namangan viloyatida 26,7 promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida 20,6 promille, Buxoro viloyatida 22,1 promille va Xorazm viloyatida 22,3 promilleni tashkil etgan.

Tug‘ilganlarni ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami tug‘ilishga nisbatan



Tug‘ilganlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida 12,0 % ga, Farg‘ona viloyatida 11,2 % ga, Qashqadaryo viloyatida 10,8 % ga, Andijon viloyatida 9,3 % ga va Surxondaryo viloyatida 9,1 % ga teng bo‘lgan.

Tug‘ilganlarni ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami tug‘ilishga nisbatan




Tug‘ilganlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida 2,4 %, Navoiy viloyatida 2,8 %, Jizzax viloyatida 4,2 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 4,5 % va Xorazm viloyatida esa 4,8 % ni tashkil etgan.

III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2024-yil yanvar-sentabr, ming kishi




Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

Erkaklar



72,3  
ming kishi

Ayollar



59,4  
ming kishi

Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

Shahar



74,5  
ming kishi

Qishloq



57,2  
ming kishi

2024-yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni 131,7 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 72,3 ming kishini, ayollar soni 59,4 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 74,5 ming kishini, qishloq joylarida 57,2 ming kishini tashkil etdi.


Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Oy	Erkaklar	Ulushi (%)	Ayollar	Ulushi (%)
YANVAR	6 189	54,7 %	5 118	45,3 %
FEVRAL	8 335	54,2 %	7 042	45,8 %
MART	7 412	54,9 %	6 101	45,1 %
APREL	6 978	53,6 %	6 029	46,4 %
MAY	7 330	55,2 %	5 953	44,8 %
IYUN	8 154	54,6 %	6 772	45,4 %
IYUL	9 794	55,4 %	7 871	44,6 %
AVGUST	10 433	55,6 %	8 343	44,4 %
SENTABR	7 710	55,8 %	6 110	44,2 %

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;

## Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari


2024-yil yanvar-sentabr, %o da



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **57,2** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,5** foizi – o‘simtalardan, **6,5** foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,8** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,0** foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,2** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **15,8** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar  
2024-yil yanvar-sentabr

Hududlar kesimida o‘limlar soni  
va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **5,5** promille, Toshkent viloyatida **5,4** promille, eng kam ko‘rsatkich Jizzax viloyatida **4,2** promilleni tashkil etgan.

O‘limlarni ulushi ko‘p bo‘lgan  
hududlar, jami o‘limga nisbatan



O‘limlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **10,9** % ga, Farg‘ona viloyatida **10,4** % ga, Toshkent shahrida **9,6** % ga, Toshkent viloyatida **9,4** % ga va Andijon viloyatida **9,3** % ga teng bo‘lgan.


O‘limlarni ulushi kam bo‘lgan  
hududlar, jami o‘limga nisbatan



O‘limlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5** %, Navoiy viloyatida **2,8** %, Jizzax viloyatida **3,6** %, Xorazm viloyatida **5,2** % va Buxoro viloyatida esa **5,3** % ni tashkil etgan.

IV BO‘LIM. NIHOHLAR

O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar  
2024-yil yanvar-sentabr, ming birlik



2024-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **179,4** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **5,1 ming** birlikka kamaygan. 2020-yilning mos davri bilan taqqoslanganda **4,6** ming birlikka kamaygan.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

Shahar

52,2 %



**93,7**

ming birlik

Qishloq



**85,7**

ming birlik

2024-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **179,4** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **93,7** mingtani (52,2 %), qishloq joylarida **85,7** mingtani (47,8 %) tashkil etgan.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

Oy	Shahar (%)	Qishloq (%)	Shahar (birlik)	Qishloq (birlik)
YANVAR	44,0 %	56,0 %	8 405	10 685
FEVRAL	49,5 %	50,5 %	7 905	8 072
MART	49,8 %	50,2 %	6 731	6 784
APREL	56,2 %	43,8 %	8 602	6 699
MAY	55,2 %	44,8 %	9 338	7 580
IYUN	54,9 %	45,1 %	9 121	7 478
IYUL	52,6 %	47,4 %	12 558	11 315
AVGUST	52,9 %	47,1 %	15 180	13 520
SENTABR	53,7 %	46,3 %	15 812	13 610



*Nikoh* – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;

### Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2024-yil yanvar-sentabr




2024-yil yanvar-sentabr oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **22,5** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **27,4** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **80,0** foizini tashkil etgan.

*Nikoh yoshi* – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

### Nikohlanuvchi ayollarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr, % da



## O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar

2024-yil yanvar-sentabr

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida 7,2 promille, Navoiy viloyatida 7,0 promille, eng past ko‘rsatkich Andijon viloyatida 5,9 promille, Namangan va Toshkent viloyatlarida 6,1 promilleni tashkil etgan.

### Nikohlarni ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami nikohlarga nisbatan



Nikohlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida 11,4 % ga, Farg‘ona viloyatida 10,8 % ga, Qashqadaryo viloyati 10,0 % ga, Toshkent shahrida 9,2 % ga va Andijon viloyatida 8,4 % ga teng bo‘lgan.


### Nikohlarni ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami nikohlarga nisbatan



Nikohlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida 2,6 %, Navoiy viloyatida 3,2 %, Jizzax viloyatida 4,2 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5,3 % va Buxoro viloyatida esa 5,5 % ni tashkil etgan.

V BO‘LIM. NIKOHDAN AJRALISHLAR

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar  
2024-yil yanvar-sentabr, ming birlik



2024-yil yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **34,0** ming birlikni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **14,0** mingtaga yoki **1,7** barobarga ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

Shahar

62,0 %



**21,1**  
ming birlik

Qishloq

38,0 %



**12,9**  
ming birlik

2024-yil yanvar-sentabr oylarida nikohdan ajralishlarning soni **34,0** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **21,1** mingtani, (**62,0 %**), qishloq joylarida **12,9** mingtani (**38,0 %**) tashkil etdi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

Oy	Shahar (%)	Qishloq (%)	Shahar (birlik)	Qishloq (birlik)
YANVAR	60,9 %	39,1 %	2 619	1 678
FEVRAL	61,3 %	38,7 %	2 334	1 473
MART	62,1 %	37,9 %	2 096	1 281
APREL	61,0 %	39,0 %	2 380	1 522
MAY	62,6 %	37,4 %	2 469	1 476
IYUN	62,0 %	38,0 %	1 947	1 192
IYUL	63,8 %	36,2 %	2 599	1 473
AVGUST	62,3 %	37,7 %	2 355	1 423
SENTABR	62,0 %	38,0 %	2 275	1 392

*Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;*

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr

47,5 %



**Farzandsiz ajrashganlar**

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **9 863** tani tashkil etgan.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni **16 135** tani tashkil etgan.

29,0 %



**1 nafar farzand bilan ajrashganlar**

23,5 %



**2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar**

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **7 986** tani tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2024-yil yanvar-sentabr

**Erkaklar**

**35,2**  
yosh



**Ayollar**


**32,4**  
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida erkaklar uchun **35,2** yoshni, ayollar uchun **32,4** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **64,3 %** ini tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2024-yil yanvar-sentabr

### Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyentining eng yuqorisi Toshkent shahrida 1,9 promille, Sirdaryo viloyatida 1,7 promille, eng kam ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida 0,8 promille, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 0,9 promilleni tashkil etgan.

### Ajralishlarni ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami ajralishlarga nisbatan



Nikohdan ajralishlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida 13,0 % ga, Andijon viloyatida 10,7 % ga, Farg‘ona viloyatida 10,6 % ga, Samarqand viloyatida 10,2 % ga va Toshkent viloyatida 10,1 % ga teng bo‘lgan.

### Ajralishlarni ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami ajralishlarga nisbatan




Nikohdan ajralishlar sonining ulushi nisbatan kam Navoiy viloyatida 2,7 %, Sirdaryo viloyatida 3,3 %, Jizzax viloyatida 3,8 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 4,0 % va Xorazm viloyatida esa 4,2 % ni tashkil etgan.

VI BO‘LIM. MIGRATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar


2024-yil yanvar-sentabr, ming kishi



Jinslar kesimida taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr


Erkaklar



80,0

ming kishi

Ayollar



106,8

ming kishi

Shahar va qishloq joylar

bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr

Shahar



141,2

ming kishi

Qishloq



45,6

ming kishi

2024-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlar soni 186,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 80,0 ming kishini, ayollar soni 106,8 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 141,2 ming kishini, qishloq joylarida 45,6 ming kishini tashkil etdi.


Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Oy	Erkaklar (kishi)	Erkaklar (%)	Ayollar (kishi)	Ayollar (%)
YANVAR	9 018	43,3 %	11 809	56,7 %
FEVRAL	8 263	44,0 %	10 525	56,0 %
MART	7 350	44,3 %	9 229	55,7 %
APREL	9 334	43,9 %	11 950	56,1 %
MAY	9 287	43,3 %	12 181	56,7 %
IYUN	7 522	42,5 %	10 181	57,5 %
IYUL	9 046	41,5 %	12 775	58,5 %
AVGUST	11 513	41,4 %	16 329	58,6 %
SENTABR	8 641	42,1 %	11 860	57,9 %

*Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

### Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr



2024-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 11,3 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 81,1 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,6 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr




O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 37,8 %), Qozog‘iston Respublikasi (24,7 %), Tojikiston Respublikasi (10,0 %), Qirg‘iz Respublikasi (6,2 %), Turkmaniston Respublikasi (2,5 %) va boshqa mamlakatlar (18,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar


2024-yil yanvar-sentabr

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyentining eng yuqorisi Toshkent shahrida **31,2** promille, Navoiy viloyatida **11,4** promille, Toshkent viloyatida **10,8** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,1** promille, Andijon viloyatida **2,2** promille va Farg‘ona viloyatida **3,2** promilleni tashkil etgan.

### Kelganlarni ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami kelganlarga nisbatan



Ko‘chib kelganlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida **38,4** % ga, Toshkent viloyatida **13,3** % ga, Samarqand viloyatida **5,8** % ga, Farg‘ona viloyatida **5,3** % ga va Navoiy viloyatida **5,0** % ga teng bo‘lgan.


### Kelganlarni ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami kelganlarga nisbatan



Ko‘chib kelganlar sonining ulushi nisbatan kam Namangan viloyatida **1,4** %, Andijon viloyatida **3,0** %, Jizzax viloyatida **3,0** %, Sirdaryo viloyatida **3,1** % va Buxoro viloyatida esa **3,7** % ni tashkil etgan.




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar  
2024-yil yanvar-sentabr, ming kishi




Jinslar kesimida taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

**Erkaklar**



**Ayollar**




Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-sentabr

**Shahar**



**Qishloq**



2024-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib ketganlar soni 193,5 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 83,2 ming kishini, ayollar soni 110,3 ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida 134,2 ming kishini, qishloq joylarida 59,3 ming kishini tashkil etdi.


Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Oy	Erkaklar (kishi)	Erkaklar (%)	Ayollar (kishi)	Ayollar (%)
YANVAR	9 378	43,7 %	12 099	56,3 %
FEVRAL	8 612	44,2 %	10 884	55,8 %
MART	7 698	44,6 %	9 548	55,4 %
APREL	9 723	44,1 %	12 300	55,9 %
MAY	9 721	43,5 %	12 608	56,5 %
IYUN	7 668	42,4 %	10 396	57,6 %
IYUL	9 192	41,5 %	12 970	58,5 %
AVGUST	12 160	41,5 %	17 154	58,5 %
SENTABR	9 026	42,3 %	12 314	57,7 %

*Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

### Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-sentabr



2024-yil yanvar-sentabr oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 11,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 80,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-sentabr




O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 82,4 %), Rossiya Federatsiyasi (14,2 %), Janubiy Koreya (0,7 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,6 %), Turkmaniston Respublikasi (0,4 %) va boshqa mamlakatlar (1,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar


2024-yil yanvar-sentabr

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **24,2** promille, Navoiy viloyatida **12,9** promille, Toshkent viloyatida **9,9** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,8** promille, Andijon viloyatida **2,7** promille va Farg‘ona viloyatida **3,8** promilleni tashkil etgan.

### Ketganlarni ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami ketganlarga nisbatan



Ko‘chib ketganlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida **28,8** % ga, Toshkent viloyatida **11,7** % ga, Qashqadaryo viloyatida **7,1** % ga, Samarqand viloyatida **6,6** % ga va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **6,0** % ga teng bo‘lgan.

### Ketganlarni ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami ketganlarga nisbatan



Ko‘chib ketganlar sonining ulushi nisbatan kam Namangan viloyatida **2,2** %, Sirdaryo viloyatida **3,3** %, Andijon viloyatida **3,6** %, Jizzax viloyatida **3,8** % va Xorazm viloyatida esa **4,9** % ni tashkil etgan.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 24-maydagi 10-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

**Demografiya mehnat va gender statistikasi boshqarmasi**

Tel: 71 203 80 00 (ichki 1240)

[z.yuldoshev@stat.uz](mailto:z.yuldoshev@stat.uz)

PRESS-RELIZ

